

KASBIY STANDART

O'rmonshunoslik

Reyestr raqami:

QR kod

I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanish sohasi: Ushbu kasbiy standart "O'rmonni muhofazalash bo'yicha muhandis", "O'rmonchi", "O'rmonshunos", "O'rmon xo'jaligi texnigi", "O'rmon xo'jaligi melioratori", "O'rmon uchastkasi mudiri yordamchisi" va "O'rmonlarni qayta tiklash va barpo etish bo'yicha muhandis" kasblari bo'yicha xodimlarga malaka talablarini belgilash, ularning malakasini mustaqil baholash, ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, shuningdek, tashkilotlarda inson resurslarini boshqarish sohasi va boshqa faoliyat yo'nalishlarida keng turda qo'llaniladi.

2. Ushbu kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

AutoCAD – ikki va uch o'lchamli avtomatlashtirilgan loyihalash va chizmachilik tizimi;

bilim – kasbiy faoliyat doirasida mehnat vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan egallangan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

ekologik monitoring – atrof tabiiy muhitning ifloslanish darajasini aniqlash, uning ekologik holatini baholash, salbiy jarayonlarning oqibatlarini prognoz qilish bartaraf etish maqsadida atrof tabiiy muhitning biotik va abiotik komponentlarining holatini, ularning ifloslanish va antropogen faoliyatning boshqa zararli ta'sirlari (jarayonlari) tufayli o'zgarishini muntazam kuzatish tizimi;

ekotizim – barcha organizmlar va ular o'zaro ta'sir qiladigan muhit;

informal ta'lim – maqsadli yoki rejalashtirilgan, biroq institutsionallashtirilmagan ta'lim bo'lib, u oilada, ish joyida va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatlarini o'z ichiga oladi;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiluvchi muayyan mehnat vazifalari va funksiyalarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – muayyan kasb haqida tizimlashtirilgan ma'lumotlarni (kasb nomi, malaka darajasi, ish staji, layoqati va shaxsiy kompetensiyalariga qo'yilgan talablar v.b.) o'z ichiga oluvchi kasbiy standartning tarkibiy qismi;

kasbiy standart – norasmiy va informal ta'limni inobatga olgan holda, muayyan kasbiy faoliyat sohasida bilim, ko'nikma, mas'uliyat va mustaqillik, malaka darajasi, mehnat mazmuni, sifati va sharoitlariga qo'yiladigan talablarni belgilovchi rasmiy hujjat;

kasbiy faoliyat sohasi – ilmiy, ijtimoiy, iqtisodiy sohalarda, ishlab chiqarishda

namoyon bo'ladigan kasbiy faoliyat obyektlarining majmuasi;

kasbiy faoliyat turi – xususiyati, natijalari va mehnat sharoitlari bir-biriga yaqin bo'lgan mehnat vazifalarining majmuasi. Kasbiy faoliyat turi kasbiy standartlarni ishlab chiqishda qo'llanilib, aniq mehnat vazifalari hamda malaka talablarini tavsiflash uchun asos bo'lib xizmat qiladi;

kasbiy standartlar reyestri – kasbiy faoliyat sohalari va turlari bo'yicha tizimlashtirilgan kasbiy standartlar ro'yxati;

kompetensiya – bilim, malaka va shaxsiy sifatlarini ma'lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun qo'llay olish;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va (yoki) aqliy jihatdan bajarish;

malaka – tegishli hujjat bilan tasdiqlanuvchi bilim, ko'nikma va kompetensiyalar majmuasi bo'lib, shaxsning muayyan kasbiy faoliyat turini bajarishga tayyorligini aks ettiradi;

malaka darajasi – xodimlarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarining murakkablik, standart bo'lmagan mehnat harakatlari va mas'uliyat parametrlariga muvofiqlik darajasi;

mehnat funksiyasi – mehnat taqsimoti natijasida yuzaga kelgan o'zaro bog'liq mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – muayyan mehnat funksiyasini bajarish uchun xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'siri jarayoni;

norasmiy ta'lim – tashkillashtirilgan, maqsadli va rejalashtirilgan ta'lim bo'lib, shaxs yoki ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilot tomonidan amalga oshiriladi va rasmiy ta'limni to'ldiruvchi yoki uning alternativasi bo'lishi mumkin;

rasmiy ta'lim – davlat ta'lim muassasalari va davlat tomonidan tan olingan nodavlat ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan, tashkillashtirilgan, maqsadli va rejalashtirilgan ta'lim jarayoni.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yildagi 31-maydagi "Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-171-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son Qarori.

4. Ushbu kasbiy standartda quyidagi qisqartmalar qo'llaniladi:

MMR – Milliy malaka ramkasi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi.

II. Kasbiy standartning pasporti

1	Kasbiy standartning nomi:	Oʻrmonshunoslik	
2	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Jamiyatning oʻrmonlar va oʻrmon resurslariga, ularning vazifalariga hamda foydali xususiyatlariga boʻlgan ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida oʻrmonlardan koʻp maqsadli, oqilona va uzluksiz tarzda foydalanishni tashkil etish	
3	IFUT boʻyicha seksiya, boʻlim, guruh, sinf va kichik sinf:	02 Oʻrmonchilik va yogʻoch tayyorlash 02.1 Oʻrmonchilik va boshqa oʻrmon xoʻjaligi faoliyati 02.10, 02.10.0 Oʻrmonchilik va boshqa oʻrmon xoʻjaligi faoliyati 02.4 Oʻrmonchilik sohasidagi texnik xizmatlar 02.40, 02.40.0 Oʻrmonchilik sohasidagi texnik xizmatlar	
4	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Jamiyatning oʻrmonlar va oʻrmon resurslariga boʻlgan ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida oʻrmonlardan koʻp maqsadli, oqilona va uzluksiz tarzda foydalanishni tashkil etish, oʻrmonlarni muhofaza qilish, qayta tiklash, oʻrmon resurslarini samarali boshqarish va oʻrmon xoʻjaligini rivojlantirish. Ushbu faoliyat ekologik muvozanatni saqlash va iqlim oʻzgarishiga qarshi kurashishda muhim ahamiyatga ega	
5	Qamrab olingan kasblar roʻyxati va malaka darajasi	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		31430 Oʻrmonni muhofazalash boʻyicha muhandis	3
		62109010 Oʻrmonchi	3
		31430 Oʻrmonshunos	5
		31430004 Oʻrmon xoʻjaligi texnigi	5
		21325002 Oʻrmon xoʻjaligi melioratori	5
		21325 Oʻrmon uchastkasi mudiri yordamchisi	6
		21325008 Oʻrmonlarni qayta tiklash va barpo etish boʻyicha muhandis	6

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1	31430 O'rmonni muhofazalash bo'yicha muhandis	A1.3	O'rmon ekotizimlarini muhofaza qilish va xavf-xatarlarga qarshi muhandislik choralarini ishlab chiqish	A1.01.3	O'rmon yong'inlariga qarshi muhandislik tizimlarini loyihalashtirish va nazorat qilish
				A1.02.3	O'rmon xavf-xatarlarini baholash va profilaktik rejalarni ishlab chiqish
2	62109010 O'rmonchi	B1.3	O'rmon muhofazasi hududida patrullik tadbirlarini tashkil etish	B1.01.3	Tayyorgarlik ishlari va daraxtlarni shox-shabbalardan tozalash
				B1.02.3	O'rmon zararkunandalari, kasalliklari va o'rmon yong'inlarini aniqlash hamda nazorat qilish
				B1.03.3	O'rmon fondi yerlarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklar oldini olish
		B2.3	Ekin ekish, urug' sepish, urug'larni yig'ish va biotexnik tadbirlarni tashkil qilish	B2.01.3	O'rmon fondi yerlaridagi daraxt va butalarning hamda dorivor o'simliklarning urug'larini yig'ish va ko'paytirish uchun ekish
				B2.02.3	Biotexnologik tadbirlarni amalga oshirish
3	31430 O'rmonshunos	D1.5	O'rmon resurslarini boshqarish va ulardan barqaror foydalanish	D1.01.5	O'rmon fondini inventarizatsiya qilish va monitoring yuritish
				D1.02.5	O'rmonlarni boshqarish rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish
	31430004 O'rmon xo'jaligi texnigi	E1.5	O'rmon xo'jaligi faoliyatini texnik jihatdan ta'minlash va uskunalar samaradorligini oshirish	E1.01.5	O'rmon xo'jaligi uskunalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash
				E1.02.5	Texnik resurslardan foydalanishni optimallashtirish
				E1.03.5	O'rmon tuzish ishlarida ishtirok etish
				E1.04.5	O'rmon xo'jaligi infratuzilmasini qurish va saqlash
5	21325002 O'rmon xo'jaligi melioratori	F1.5	O'rmon hududlarini melioratsiya qilish	F1.01.5	Tuproq eroziyasiga qarshi meliorativ tadbirlarni amalga oshirish
				F1.02.5	Suv resurslarini boshqarishni optimallashtirish
		F2.5	O'rmon ekotizimlarini muhofaza qilish va barqaror rivojlantirish	F2.01.5	O'rmonlarni qayta tiklash va ko'klamzorlashtirish
				F2.02.5	Ekologik monitoring va xavf-xatarlarni baholash

6	21325 O'rmon uchastkasi mudiri yordamchisi	G1.6	O'rmon uchastkasida o'rmon resurslarini boshqarish va muhofaza qilish	G1.01.6	Topshirilgan uchastkada o'rmonni muhofaza qilish ishlarini tashkil etish va nazorat qilish
				G1.02.6	O'rmon xo'jaligi uchastkasida o'rmonlarining holati, ulardan foydalanish, qayta tiklanishi va muhofazasini nazorat qilish
		G2.6	O'zbekiston Respublikasining o'rmonlar va o'rmonlarni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish	G2.01.6	O'rmonlarga zarar yetkazishning barcha turlari bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish
				G2.02.6	O'rmon huquqbuzarlarini javobgarlikka tortish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish
7	21325008 O'rmonlarni qayta tiklash va barpo etish bo'yicha muhandis	H1.6	O'rmonlardan oqilona foydalanish sohasidagi ishlarni tezkor boshqarish	H1.01.6	O'rmonlardan foydalanishning barcha turlari bo'yicha qoidalarini amalga oshirishni tashkil etish va nazorat qilish
				H1.02.6	O'zbekiston Respublikasining o'rmonlardan foydalanish sohasidagi o'rmon qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilish
				H1.03.6	O'rmon xo'jaligi ishlab chiqarishi va o'rmonlardan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish
		H2.6	O'rmonlarni tiklash sohasidagi ishlarni tezkor boshqarish	H2.01.6	O'rmonlarni tiklash ishlarini rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilish
				H2.02.6	O'rmon urug'chiligi ishini nazorat qilish
				H2.03.6	Hujjatlarni tayyorlash va yuritish, o'rmonlarni tiklash ishlari samaradorligini oshirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish
		H3.6	O'rmonlarni muhofaza qilish va himoyalash sohasidagi ishlarni tezkor boshqarish	H3.01.6	O'rmon muhofazasi sohasidagi ishlarning bajarilishini nazorat qilish
				H3.02.6	O'rmondan foydalanishning har xil turlarida yong'in xavfsizligi qoidalarining bajarilishini nazorat qilish
				H3.03.6	Aholi o'rtasida tushuntirish va tarbiyaviy ishlarni yuritish
				H3.04.6	Hujjatlarni tayyorlash va yuritish, o'rmonni buzilishlar, yong'inlar, zararkunandalar va boshqa zararli omillardan himoya qilishning barcha turlarini oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	O'rmonni muhofazalash bo'yicha muhandis	
Mashg'ulot nomining kodi:	31430	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Malakani baholash tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	O'rmon hududlarida ishlash – issiq, sovuq, namlik, chang yoki o'rmon zararkunandalari kabi og'ir tabiiy sharoitlariga bardoshlilik O'rmon yong'inlari, noqonuniy kesish yoki ekologik xavf-xatarlar kabi favqulodda vaziyatlarda tezkor va mas'uliyatli qarorlar qabul qilish; Samarali mehnat munosabatlarini o'rnatish; O'zaro muloqotda xushmuomulali bo'lish; Professional rivojlanish ustida ishlash; Kasb bilan bog'liq o'zgarishlarni kuzatish	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	boshlang'ich professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	Ish joyida trening va seminarlar hamda qisqa muddatli o'quv kurslari	
Kasbiy standartlar reestrda mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:		
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi	Kasbning nomi
	5	O'rmon xo'jaligi texnigi
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.3-O'rmon ekotizimlarini muhofaza qilish va xavf-xatarlarga qarshi muhandislik choralarini ishlab chiqish	A1.01.3-O'rmon yong'inlariga qarshi muhandislik tizimlarini loyihalashtirish va nazorat qilish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Yong'in xavfi yuqori bo'lgan hududlarni aniqlash va xaritalashtirish
		2. Yong'inlarga qarshi tizimlarning o'rnatilishi va ish faoliyatini nazorat qilish
		3. Texnik hujjatlarni tayyorlash va muvofiqlashtirish
		Ko'nikmalar:
		Yong'in xavfini kamaytirish bo'yicha texnik echimlarni baholash va optimallashtirish
		Yong'inlarga qarshi uskunalar bilan ishlash
		Yong'inlarga qarshi muhandislik tizimlarini loyihalashtirishda AutoCAD yoki boshqa loyihalashtirish dasturlaridan foydalanish
		Bilimlar:
		O'rmon yong'inlarining ekologik va iqlim omillari
		Yong'inlarga qarshi muhandislik tizimlarining tuzilishi va ishlash tamoyillari

		O'zbekiston Respublikasi o'rmon qonunchiligi talablari
		O'rmon ekotizimlarining biologik va geologik xususiyatlari
		Mehnatni muhofaza qilish va yong'in xavfsizligi talablari
	A1.02.3-O'rmon xavf-xatarlarini baholash va profilaktik rejalarni ishlab chiqish	Mehnat harakatlari:
		1. O'rmon hududlarida yong'in va zararkunandalar xavfini monitoring qilish
		2. Xavf-xatarlarni baholash uchun ma'lumotlarni to'plash
		3. Profilaktik choralarni rejalashtirish va amalga oshirish
		4. Favqulodda vaziyatlar uchun evakuatsiya va xavfsizlik rejalarni ishlab chiqish
		Ko'nikmalar:
		O'rmon xavf-xatarlarini baholashda GIS (geografik axborot tizimlari) va masofaviy zondlash texnologiyalaridan foydalanish
		Profilaktik rejalar va hisobotlarni tayyorlash
		Jamoa bilan hamkorlikda favqulodda vaziyatlarda tezkor choralar ko'rish
		Bilimlar:
		O'rmon xavf-xatarlarini baholash usullari
		O'rmon zararkunandalari va kasalliklarining biologik xususiyatlari
		Ekologik monitoring va xavfsizlik bo'yicha xalqaro va milliy standartlar
		Mehnatni muhofaza qilish va yong'in xavfsizligi talablari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. O'rmon yong'inlari va boshqa xavf-xatarlarga qarshi loyihalarni mustaqil ravishda rejalashtirish va amalga oshirish
		2. Yong'inlarga qarshi tizimlarning sifati va xavfsizligi uchun javobgarlik
	Texnik va/yoki texnologik talab	

Kasbning nomi:	O'rmonchi	
Mashg'ulot nomining kodi:	62109	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Malakani baholash tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	O'rmon hududlarida ishlash – issiq, sovuq, namlik, chang yoki o'rmon zararkunandalari kabi og'ir tabiiy sharoitlariga bardoshlilik; O'rmon yong'inlari, noqonuniy kesish yoki ekologik xavf-xatarlar kabi favqulodda vaziyatlarda tezkor va mas'uliyatli qarorlar qabul qilish; Samarali mehnat munosabatlarini o'rnatish; O'zaro muloqotda xushmuomulali bo'lish; Professional rivojlanish ustida ishlash; Kasb bilan bog'liq o'zgarishlarni kuzatish	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	boshlang'ich professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	Ish joyida trening va seminarlar hamda qisqa muddatli o'quv kurslari	
Kasbiy standartlar reestrda mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:		
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi	Kasbning nomi
	5	O'rmon xo'jaligi texnigi
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
B1.3-O'rmon muhofazasi hududida patrullik tadbirlarini tashkil etish	B1.01.3-Tayyorgarlik ishlari va daraxtlarni shox-shabbalardan tozalash	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. O'rmon hududlarida daraxtlarni shox-shabba va quruq novdalardan tozalash uchun asbob-uskunalarni tayyorlash
		2. Tozalangan materiallarni yig'ish va utilizatsiya qilish
		3. Ish joyida xavfsizlik qoidalariga rioya qilish va ish jarayonini hujjatlashtirish
		4. Tozalash ishlarining sifatini nazorat qilish va hisobot tayyorlash
		Ko'nikmalar:
		Arra, bolta va boshqa qo'l asboblaridan foydalanish
		Daraxtlarni tozalashda xavfsizlik texnikasini qo'llash
		O'rmon hududlarida sanitariya tozalash ishlarini rejalashtirish
		Tozalashdan keyin o'rmon hududining ekologik holatini baholash
		Ish jarayonlarini hujjatlashtirish
		Bilimlar:

		O'rmon o'simliklarining biologik xususiyatlari
		O'rmon ekotizimlariga ta'sir qiluvchi omillar
		O'zbekiston Respublikasi o'rmon qonunchiligi talablari
		Mehnatni muhofaza qilish va yong'in xavfsizligi talablari
	B1.02.3-O'rmon zararkunandalari, kasalliklari va o'rmon yong'inlarini aniqlash hamda nazorat qilish	Mehnat harakatlari:
		1. O'rmon hududlarida muntazam patrullik qilish va xavf-xatarlarni aniqlash
		2. Zararkunandalar va kasalliklarni aniqlash uchun o'simliklar va tuproq namunalarini yig'ish
		3 Yong'in xavfini baholash va boshlang'ich yong'in o'choqlarini o'chirish
		Ko'nikmalar:
		O'rmon zararkunandalari va kasalliklarini vizual va laboratoriya usullari bilan aniqlash
		Yong'in o'chirish uskunalaridan foydalanish
		GPS va xaritalardan foydalanish, o'rmon hududlarida navigatsiya qilish
		Ekologik monitoring ma'lumotlarini yig'ish
		Bilimlar:
		O'rmon zararkunandalari va kasalliklarining biologik xususiyatlari
		Yong'in xavfi omillari va boshlang'ich yong'in o'choqlarini o'chirish usullari
		O'rmon monitoringi va patrullik qilish usullari
		O'zbekiston Respublikasi o'rmon qonunchiligi talablari
		Mehnatni muhofaza qilish va yong'in xavfsizligi talablari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. O'rmon hududida patrullik va monitoringni mustaqil ravishda tashkil etish
		2. Yong'in va zararkunandalarga qarshi dastlabki choralar uchun mas'uliyat
	B1.03.3-O'rmon fondi yerlarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklar oldini olish	Mehnat harakatlari:
		1. O'rmon hududlarida muntazam patrullik qilish va sodir bo'lishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklarni aniqlash
		2. O'rmon fondi yerlarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklarni oldini olish
		3 O'rmon fondi yerlarida sodir bo'lgan huquqbuzarliklarga qarshi chora ko'rish
		Ko'nikmalar:
		O'rmon fondi yerlarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklarni aniqlash
		O'rmon fondi yerlarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklarni oldini olish
		GPS va xaritalardan foydalanish, o'rmon hududlarida navigatsiya qilish
		Ekologik monitoring ma'lumotlarini yig'ish
		Bilimlar:
		O'rmon fondi yerlarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan huquqbuzarlik turlari

		Inson psixologiyasi
		O'rmon monitoringi va patrullik qilish usullari
		O'zbekiston Respublikasi o'rmon qonunchiligi talablari
		Mehnatni muhofaza qilish va yong'in xavfsizligi talablari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. O'rmon hududida patrullik va monitoringni mustaqil ravishda tashkil etish 2. Yong'in va zararkunandalarga qarshi dastlabki choralar uchun mas'uliyat
B2.3-Ekin ekish, urug' sepish, urug'larni yig'ish va biotexnik tadbirlarni tashkil qilish	B2.01.3-O'rmon fondi yerlaridagi daraxt va butalarning hamda dorivor o'simliklarning urug'larini yig'ish va ko'paytirish uchun ekish	Mehnat harakatlari:
		1. O'rmon daraxtlari urug'larini yig'ish va sifatini baholash
		2. Urug'larni ekish va sepish uchun tuproqni tayyorlash
		3. Ekilgan urug'larning o'sish jarayonini kuzatish va parvarish qilish
		4. Urug' yig'ish va ekish jarayonini hujjatlashtirish
		Ko'nikmalar:
		O'rmon daraxtlari urug'larini yig'ish
		Tuproqni tayyorlash va urug' ekishda qo'l va mexanik asboblardan foydalanish
		Urug'larning sifatini vizual va oddiy laboratoriya usullari bilan baholash
		Ekish jarayonida ekologik talablarga rioya qilish
		O'sish jarayonini monitoring qilish va hisobot tayyorlash
		Bilimlar:
		O'rmon daraxtlari turlarining urug'lari va ularning biologik xususiyatlari
		Tuproq tayyorlash va urug' ekish texnologiyalari
		O'rmon o'simliklarining o'sish sharoitlari va parvarish usullari
		O'zbekiston Respublikasi o'rmon qonunchiligi talablari
		Mehnatni muhofaza qilish va yong'in xavfsizligi talablari
	B2.02.3-Biotexnologik tadbirlarni amalga oshirish	Mehnat harakatlari:
		1. O'rmon hududlarida yovvoyi hayvonlar va o'simliklar populyatsiyasini oshirish uchun biotexnologik choralar ishlab chiqish
		2. Hayvonlar uchun ozuqa joylari va suv manbalarini tashkil qilish
		3. O'rmon ekotizimlarini barqarorlashtirish uchun tuproq va o'simliklarni parvarishlash
		Ko'nikmalar:
		Biotexnologik tadbirlarni rejalashtirish va tashkil qilish
		Hayvonlar ozuqasi va suv manbalarini joylashtirishda ekologik talablarga rioya qilish
		Ekologik monitoring va ma'lumotlarni yig'ish
		Biotexnologik loyihalarni amalga oshirishda jamoa bilan hamkorlik qilish
		Bilimlar:
		O'rmon ekotizimlarida biotexnologik tadbirlarni qo'llash

		tamoyillari
		O'zbekiston Respublikasi o'rmon qonunchiligi talablari
		Mehnatni muhofaza qilish va yong'in xavfsizligi talablari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Urug' ekish va biotexnologik tadbirlarni tashkil qilishda mustaqillik
		2. Ekologik loyihalar natijasiga mas'uliyat
Texnik va/yoki texnologik talab		GPS navigatsiyasi va xaritalash vositalari

Kasbning nomi:	O'rmonshunos	
Mashg'ulot nomining kodi:	31430	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	5	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Malakani baholash tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	O'rmon xo'jaligi va qishloq xo'jaligi sohalarida 1 yilgacha bo'lgan ish staji	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	O'rmon hududlarida ishlash – issiq, sovuq, namlik, chang yoki o'rmon zararkunandalari kabi og'ir tabiiy sharoitlariga bardoshlilik; O'rmon yong'inlari, noqonuniy kesish yoki ekologik xavf-xatarlar kabi favqulodda vaziyatlarda tezkor va mas'uliyatli qarorlar qabul qilish; Samarali mehnat munosabatlarini o'rnatish; O'zaro muloqotda xushmuomulali bo'lish; Professional rivojlanish ustida ishlash; Kasb bilan bog'liq o'zgarishlarni kuzatish	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	o'rta maxsus professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	Ish joyida trening va seminarlar hamda qisqa muddatli o'quv kurslari	
Kasbiy standartlar reestrda mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:		
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi	Kasbning nomi
	3	O'rmonchi
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
D1.5-O'rmon resurslarini boshqarish va ulardan barqaror foydalanish	D1.01.5-O'rmon fondini inventarizatsiya qilish va monitoring yuritish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. O'rmon fondining holatini baholash uchun dala tadqiqotlari va inventarizatsiya ishlarini tashkil etish
		2. O'rmon hududlarining daraxt turlari, yoshi va ekologik holatini aniqlash va hujjatlashtirish
		3. Masofaviy zondlash va geografik axborot tizimlari yordamida o'rmon resurslarini xaritalash
		4. O'rmon fondidagi o'zgarishlarni monitoring qilish va ma'lumotlarni tahlil qilish
		Ko'nikmalar:
		GIS va masofaviy zondlash texnologiyalaridan foydalanish
		O'rmon resurslarini inventarizatsiya qilishda statistik va ekologik tahlil usullarini qo'llash
		Ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish va hisobotlarni professional tarzda taqdim etish
		O'rmon monitoringi jarayonlarini jamoa bilan muvofiqlashtirish va boshqarish

		Bilimlar:
		Oʻrmon ekotizimlarining biologik va ekologik xususiyatlari
		Oʻrmon fondini inventarizatsiya qilishning xalqaro usullari va milliy qonunchilik talablari
		Oʻrmon resurslarini boshqarishda statistik tahlil va maʼlumotlar bazasi usullari
		Oʻzbekiston Respublikasi oʻrmon qonunchiligi talablari
		Mehnatni muhofaza qilish va yongʻin xavfsizligi talablari
	D1.02.5- Oʻrmonlarni boshqarish rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish	Mehnat harakatlari:
		1. Oʻrmon resurslaridan barqaror foydalanish uchun uzoq va qisqa muddatli boshqaruv rejalarni ishlab chiqish
		2. Oʻrmonni muhofaza qilish va qayta tiklash boʻyicha rejalarni muvofiqlashtirish va tasdiqlash
		3. Oʻrmon yongʻinlari, zararkunandalar va noqonuniy faoliyatga qarshi profilaktik choralar rejalashtirish
		4. Boshqaruv rejasining amalga oshirilishini nazorat qilish va samaradorligini baholash
		Koʻnikmalar:
		Oʻrmon boshqaruv rejalarni ishlab chiqishda strategik rejalashtirish va tahlil qilish
		Jamoani boshqarish va ish jarayonlarini muvofiqlashtirish
		Ekologik va iqtisodiy barqarorlikni taʼminlash
		Bilimlar:
		Oʻrmon resurslarini barqaror boshqarish tamoyillari va xalqaro standartlar
		Oʻrmon xoʻjaligi rejalashtirish va boshqaruv metodologiyalari
		Iqtisodiy tahlil va loyiha samaradorligini baholash usullari
		Oʻzbekiston Respublikasi oʻrmon qonunchiligi talablari
		Mehnat muhofazasi va yongʻin xavfsizligi talablari
	Masʼuliyat va mustaqillik:	1. Oʻrmon resurslarini boshqarish boʻyicha strategik rejalarni mustaqil ravishda ishlab chiqish va amalga oshirish
		2. Oʻrmon boshqaruv rejasining iqtisodiy va ekologik samaradorligi uchun javobgarlik
Texnik va/yoki texnologik talab		GIS, masofaviy zondlash va maʼlumotlarni tahlil qilish dasturlari bilan ishlash

Kasbning nomi:	O'rmon xo'jaligi texnigi	
Mashg'ulot nomining kodi:	31430	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	5	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Malakani baholash tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	O'rmon xo'jaligi va qishloq xo'jaligi sohalarida 1 yilgacha bo'lgan ish staji	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	O'rmon hududlarida ishlash – issiq, sovuq, namlik, chang yoki o'rmon zararkunandalari kabi og'ir tabiiy sharoitlariga bardoshlilik; O'rmon yong'inlari, noqonuniy kesish yoki ekologik xavf-xatarlar kabi favqulodda vaziyatlarda tezkor va mas'uliyatli qarorlar qabul qilish; Samarali mehnat munosabatlarini o'rnatish; O'zaro muloqotda xushmuomulali bo'lish; Professional rivojlanish ustida ishlash; Kasb bilan bog'liq o'zgarishlarni kuzatish	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	o'rta maxsus professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	Ish joyida trening va seminarlar hamda qisqa muddatli o'quv kurslari	
Kasbiy standartlar reestrda mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:		
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi	Kasbning nomi
	5	O'rmon xo'jaligi melioratori
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
E1.5-O'rmon xo'jaligi faoliyatini texnik jihatdan ta'minlash va uskunalar samaradorligini oshirish	E1.01.5-O'rmon xo'jaligi uskunalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. O'rmon xo'jaligi uskunalarining (traktorlar, yuk ko'taruvchi mashinalar, kesish asboblari) texnik holatini tekshirish va diagnostika qilish
		2. Uskunalarining profilaktik xizmat ko'rsatish ishlarini amalga oshirish (yog' almashinish, filtr tozalash)
		3. Nosozliklarni aniqlash va ta'mirlash, ehtiyot qismlarni almashtirish
		4. Uskunalarni sinovdan o'tkazish va ishga tayyor holatga keltirish
		5. Texnik hujjatlarni yuritish
		Ko'nikmalar:
		O'rmon xo'jaligi uskunalarini diagnostika qilish va ta'mirlash bo'yicha maxsus asboblardan foydalanish
		Uskunalarining ishlash parametrlarini tahlil qilish va sozlash
		Elektron boshqaruv tizimlari va gidravlik tizimlar bilan ishlash

		Texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish va ish joyida xavfsiz ishlash
		Bilimlar:
		O'rmon xo'jaligi uskunalarining tuzilishi va ishlash tamoyillari
		O'rmon xo'jaligi uskunalarining mexanik, gidravlik va elektron tizimlari
		Texnika xavfsizlik qoidalar va ekologik normalar
		Zamonaviy diagnostika va sinov usullari
	E1.02.5-Texnik resurslardan foydalanishni optimallashtirish	Mehnat harakatlari:
		1. Uskunalarining energiya sarfini tahlil qilish va tejamkor rejimlarni joriy etish
		2. Uskunalarining ish samaradorligini oshirish uchun texnologik takliflarni ishlab chiqish
		3. Chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash tizimlarini joriy etish
		4. Resurslardan foydalanish bo'yicha hisobotlarni tayyorlash va monitoring qilish
		Ko'nikmalar:
		Resurs sarfini tahlil qilish va optimallashtirish usullarini qo'llash
		Zamonaviy texnologiyalarni integratsiya qilish
		Ekologik va iqtisodiy ko'rsatkichlarni barqarorlashtirish
		Bilimlar:
		Resurslardan foydalanishni optimallashtirish bo'yicha xalqaro va milliy standartlar
		Energiya tejamkorligi va ekologik barqarorlik tamoyillari
		O'rmon xo'jaligi jarayonlarining texnologik xususiyatlari
		Iqtisodiy tahlil asoslari
	E1.03.5-O'rmon tuzish ishlarida ishtirok etish	Mehnat harakatlari:
		1. Hududni tekshirish, tuproq tahlili qilish
		2. Begona o'tlarni tozalash, yerni chizish va shudgorlash
		3. Chuqurchalar va ko'chat ekish yotqiziqlarini tayyorlash
		4. Ko'chat ekish, urug' sepish, o'simliklarni mahkamlash va sug'orish
		Ko'nikmalar:
		O'rmon tuzish uchun hududni va tuproqni tahlil qilish
		Yerni shudgorlash usullaridan foydalanish
		Ko'chatlarni parvarishlash va sug'orish
		Bilimlar:
		Hudud va tuproq xususiyatlari
		Yerni shudgorlash tartibi
		O'rmon xo'jaligi jarayonlarining texnologik xususiyatlari
		Iqlim asoslari
	E1.04.5-O'rmon xo'jaligi infratuzilmasini	Mehnat harakatlari:
		1. O'rmon xo'jaligi yo'llari, omborlar va boshqa infratuzilma obyektlarini loyihalashtirish va qurish

	qurish va saqlash	2. Infratuzilma obyektlariga muntazam texnik xizmat ko'rsatish
		3. Yong'in xavfsizligi choralarini ta'minlash
		4. Ekologik talablarga muvofiq infratuzilmadan foydalanishni nazorat qilish
		5. Qurilish va ta'mirlash ishlarini rejalashtirish va muvofiqlashtirish
		Ko'nikmalar:
		Qurilish va ta'mirlash ishlarini tashkil qilish va nazorat qilish
		Ekologik va xavfsizlik standartlariga rioya qilish
		Qurilish texnikasi va asboblardan foydalanish
		Bilimlar:
		O'rmon xo'jaligi infratuzilmasining loyihalashtirish va qurilish standartlari
		Qurilish materiallari va texnologiyalari xususiyatlari
		O'zbekiston Respublikasi o'rmon qonunchiligi talablari
		Mehnat muhofazasi va yong'in xavfsizligi talablari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Ish jarayonlarida xavfsizlik va ekologik standartlarga rioya qilish uchun to'liq mas'uliyat
2. Texnik xizmat, optimallashtirish va qurilish jarayonlarida mustaqil ravishda qaror qabul qilish, lekin rahbariyat ko'rsatmalariga rioya qilish		
Texnik va/yoki texnologik talab		Zamonaviy diagnostika asboblari (skaner, sensor) va dasturiy ta'minotdan foydalanish

Kasbning nomi:	O'rmon xo'jaligi melioratori	
Mashg'ulot nomining kodi:	21325	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	5	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Malakani baholash tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	O'rmon xo'jaligi va qishloq xo'jaligi sohalarida 1 yilgacha bo'lgan ish staji	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	O'rmon hududlarida ishlash – issiq, sovuq, namlik, chang yoki o'rmon zararkunandalari kabi og'ir tabiiy sharoitlariga bardoshlilik; O'rmon yong'inlari, noqonuniy kesish yoki ekologik xavf-xatarlar kabi favqulodda vaziyatlarda tezkor va mas'uliyatli qarorlar qabul qilish; Samarali mehnat munosabatlarini o'rnatish; O'zaro muloqotda xushmuomulali bo'lish; Professional rivojlanish ustida ishlash; Kasb bilan bog'liq o'zgarishlarni kuzatish	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	o'rta maxsus professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	Ish joyida trening va seminarlar hamda qisqa muddatli o'quv kurslari	
Kasbiy standartlar reestrida mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:		
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi	Kasbning nomi
	5	O'rmon xo'jaligi texnigi
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
F1.5-O'rmon hududlarida tuproq va suv resurslarini melioratsiya qilish	F1.01.5-Tuproq eroziyasiga qarshi meliorativ tadbirlarni amalga oshirish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Tuproq eroziyasining darajasini baholash uchun o'rmon hududlarida tahlil va monitoring o'tkazish
		2. Eroziyaga qarshi to'siqlar qurish va saqlash (terrasalar, o'simlik zonalar)
		3. Tuproq sifatini yaxshilash uchun organik va mineral o'g'itlardan foydalanish
		4. Eroziyaga qarshi ekotexnologiyalarni joriy etish
		Ko'nikmalar:
		Tuproq tahlili va eroziya xavfini baholash uchun tuproq namligini o'lchash
		Meliorativ tuzilmalar (terrasalar, drenaj tizimlari) qurish va ularga xizmat ko'rsatish
		O'simlik turlarini tanlash va eroziyaga qarshi ekish texnikalarini qo'llash
		Ekologik xavfsizlik standartlariga rioya qilish va ish joyida xavfsiz ishlash

		Melioratsiya rejalarini o'qish va tahlil qilish Jamoaviy ishda hamkorlik va ish jarayonlarini muvofiqlashtirish Bilimlar: Tuproqshunoslik asoslari va eroziya turlari Ekologik muhofaza va tuproq barqarorligini ta'minlash usullari O'simliklar biologiyasi va tuproqqa mos o'simlik turlarini tanlash usullari Meliorativ texnologiyalar va ularning qo'llanilish tartibi O'zbekiston Respublikasi o'rmon qonunchiligi talablari Mehnatni muhofaza qilish va yong'in xavfsizligi talablari
